



UZBEKISTON RESPUBLIKASI
O'ZBEGIYA G'AMAKI
JUMHURIYATI




FOND AND AGRICULTURE
ORGANIZATION
OF THE UNITED NATIONS



UZGIP

ЧЎЛЛАНИШ МУАММОЛАРИ: динамика, баҳолаш, ечим



ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

Самарқанд -2019



**«ЧЎЛЛАНИШ МУАММОЛАРИ:
ДИНАМИКА, БАҲОЛАШ, ЕЧИМ»**
халқаро илмий-амалий конференция
материаллари тўплами

2019 йил 13-14 декабрь
Самарқанд, Ўзбекистон

**«ПРОБЛЕМЫ ОПУСТЫНИВАНИЯ:
ДИНАМИКА, ОЦЕНКА, РЕШЕНИЕ»**
материалы международной
научно-практической конференции

13-14 декабря 2019 г.
Самарқанд, Узбекистан

**«PROBLEMS OF DESERTIFICATION:
DYNAMICS, ASSESSMENT, SOLUTIONS»**
International Conference

December 13-14, 2019
Samarkand, Uzbekistan

Ширипбоев Д.Н., Улуғмуродов Э., Нормаматова М., Рамазоннов Ж. ЯККАБОҒ ДАРЁСИ СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ЧАЛА ЧЎЛ ХУДУДЛАРИНИ СУҒОРИШДА САМАРАЛИ ҲОҲДАЛАНИШИ.....	146
Хамидов А.А. БИОЛОГИЯ ЦВЕТЕНИЯ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ МНОГОЛЕТНИХ КУСТАРНИКОВ И ПОЛУКУСТАРНИКОВ В АРИДНОЙ ЗОНЕ УЗБЕКИСТАНА	149
Султашова О.Г., Далжанов К.О., Султашов Р.Г., Сатбаева Э.К. ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИНИ БАҲОЛАШ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИГА МОСЛАШИШ ЧОРАЛАРИ.....	153
Ярашев Қ.С., Эшқувватов Б.Б. ЎЗБЕКИСТОННИНГ АРИД ХУДУДЛАРИДА ТОҒ ОЛДИ ТЕКИСЛИК ВА КОНУССИМОН ЁЙИЛМА ЛАНДШАФТЛАРИНИНГ ГЕОГРАФИК ТАРҚАЛИШИ.....	154
Байгенов Ф.Н., Иргашев Т.А., Каримова М.О., Косилов В.И. ВЛИЯНИЕ ВЫСОКОЙ ТЕМПЕРАТУРЫ НА МОЛОЧНУЮ ПРОДУКТИВНОСТЬ КОРОВ ПРИ ВКЛЮЧЕНИИ В РАЦИОН БЕНТОНИТА, ПРЕМИКСА И ГРАНУЛ В ЗАМЕН КОНЦЕНТРАТА	156
Мадаминов А.А. ЯДОВИТЫЕ РАСТЕНИЯ ПАСТБИЩ ТАДЖИКИСТАНА.....	158
Холдаров Д.М., Шодиева Г.Г., Содикова С.Ф., Шодиев Д.А. ЧЎЛЛАНИШНИНГ ТУПРОК ШЎРЛАНИШ ЖАРАЁНИГА ТАЪСИРИ ТЎҒРИСИДА.....	161
Фундукчиев С.Э. ПРОБЛЕМЫ ВОЗДЕЙСТВИЯ КРУПНЫХ ВОДОХОЗЯЙСТВЕННЫХ МЕРОПРИЯТИЙ НА МЕСТА ОБИТАНИЯ И РАССЕЛЕНИЯ ЖИВОТНЫХ.....	163
Саидов М.К. БИОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗНООБРАЗИЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ДИКОРАСТУЩИХ ПИЩЕВЫХ РАСТЕНИЙ ГОРНОГО ЗАРАФШАНА	164
Исаков В.Ю., Юсупова М.А. ГЕОЭКОЛОГИЯ И ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПЕСЧАНЫХ ПОЧВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ.....	166
Тухтаева Х. Т., Собирова Г.Т. ТАКЫРЫ И ИХ РОЛЬ В ВОДООБЕСПЕЧЕНИИ ПУСТЫНЬ.....	167
Закирова С.Х., Махмуджоннова П., Хошимов Д. КУМЛИКЛАРИНИНГ АГРОФИЗИКАВИЙ ХОССАЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ.....	169
Нугманова А.А., Султонова Н.Б. МИНТАҚА ИЧИМЛИК СУВИ МУАММОСИ ВА УНИНГ БАҲАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ.....	170
Ниязова О.Б., Рашидов Н.Д. МАКРОФАУНА ПОЧВ ПЛОДОВЫХ САДОВ (на примере Зарафшанской долины)	172
Ширипбоев Д.Н., Хайдаров С.А., Баратов Ҳ.А., Худоярова Ш. ЎРТА ЗАРАФШОНДАГИ АРИД ХУДУДЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ УЧУН БАҲОРА ЭТИЛГАН ЙИРИК ГИДРОТЕХНИК ИНШООТЛАР.....	173
Филиппов С.Г., Имамджанов Х.А. РАССМОТРЕНИЕ ПАРАМЕТРОВ МОДЕЛИ КОНВЕКЦИИ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСКУССТВЕННОГО УВЕЛИЧЕНИЯ ОСАДКОВ.....	176
Дусанова Ш., Холметова Г., Турсуннова Д. ОРОЛБЎЙИ ЭКОЛОГИК МУАММОЛАРИ ВА УЛАРИНИ БАҲАРАФ ЭТИШ ЧОРА -ТАДБИРЛАРИ.....	178
Ҳозилов Ҳ. ЗАРАФШОН ВОДИЙСИДАГИ ҚУРУҚ ДЕЛЬТАЛАР ЛАНДШАФТЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ЧЎЛЛАНИШ ЖАРАЁНИ.....	179
Hisoriev N.N., Kurbonova P.A., Khudjaev M. DISTRIBUTION OF BLUE-GREEN ALGAE (CYANOPHYTA) IN SOME ARID AND SEMIARID TERRITORIES OF CENTRAL ASIA.....	181
Тухтаева Х.Т., Рахматов Ю.Б., Бозоркулова Ш.А. ВОДНЫЕ РЕСУРСЫ ПУСТЫНЬ ЦЕНТРАЛЬНОГО КЫЗЫЛКУМА	183
Турсунбоев Х.Е., Абилов Р.К., Қайпов Қ.П., Султашова О.Г. ЎЗБЕКИСТОН ЧЎЛЛАРИНИНГ ИҚЛИМ ШАРОИТЛАРИ ВА ЧЎЛ МИНТАҚАСИ ЎСИМЛИКЛАРИ.....	185
Деушева Г.Г., Белялова Л. Э. ДОСТИЖЕНИЯ, ПРОБЛЕМЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ В ВОДНОМ СЕКТОРЕ	186
Ғаниев Ш.Р., Худоярова Ш.Ш. САМАРҚАНД ШАҲРИДА ҚУЁШ РАДИАЦИЯСИ ВА ҲАВО ҲАРОРАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	187
4 -шўъба: Орол ва оролбўйи хуудларида чўлланишни олдини олиш бўйича тадбирлар.	
-секция: Меропряття по предотвращению опустынивания в регионах Арал и приаралья.	
-section: Actions to prevent desertification in the Aral and Aral regions.	
Хикматов Ф.Х., Аденбаев Б.Е., Эрлапасов Н.Б., Хикматов Б.Ф., Зияев Р.Р. О ДИНАМИКЕ ЭЛЕМЕНТОВ ВОДНОГО БАЛАНСА АРАЛЬСКОГО МОРЯ.....	189
Талипов Х.М. МЕРОПРИЯТИЯ ПО ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ ОПУСТЫНИВАНИЯ НА УЗБЕКСКОЙ ЧАСТИ ОСУШЕННОГО ДНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ	194
Жоллибеков Б., Жоллибеков М.Б., Жашибек кизи Д., Есемуратова Р. КАЧЕСТВО ПОВЕРХНОСТНЫХ И ПОЧВЕННО ГРУНТОВЫХ ВОД В ЮЖНОМ ПРИАРАЛЬЕ.....	195
Ибрагимов М.Ю., Алламуратов М.О., Турсунбоев Ҳ.Е., Абдимуратова Н.Қ. ОРОЛ ДЕНГИЗИНИНГ СУВИ ҚУРИГАН ХУДУДЛАРИДА ЯШИЛ ЎРМОН БАҲОРА ЭТИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎНАЛИШЛАРИ.....	197
Камолов Б.А. ОРОЛ ЧАНГИ ВА ТУЗИ ЧЎЛЛАНИШНИ КУЧАЙТИРУВЧИ УЛКАН ОМИЛ (Қискартирилган вариант).....	199
Баратов П., Алимкулов Н.Р. ОРОЛ ДЕНГИЗИ ҚУРИШНИНГ САЛБИЙ ОҚИБАТЛАРИ.....	201
Шербаета З.Э., Исакова У.И., Зулшова А.Т. ОПУСТЫНИВАНИЕ: ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ.....	203
Isaqov V.Yu., Meliyev M.S., Muhammadova M.T. OROL VA OROLBO'YI HUDUDLARIDA CHO'LLANISHNI OLDINI OLIHNING AYRIM MASALALARI.....	205
Хурсанов Д.Б., Ҳозилов Ҳ. ОРОЛ ВА ОРОЛБЎЙИ ХУДУДЛАРИДА ЧО'ЛЛАНИШНИ OLDINI OLIHNING AYRIM MASALALARI.....	206

разрушению социальной и культурной структуры общества во многих других странах. Глобальному миру также может угрожать опасность из-за отсутствия продовольствия, воды и энергии.

В борьбе с опустыниванием ощутимые результаты может принести только комплексная программа мероприятий, так как само опустынивание является комплексной проблемой. На различных территориях упор должен делаться на специфические мероприятия по борьбе с преобладающим видом деградации, но подход к проблеме все равно должен носить комплексный характер, так как предотвращение угрозы или ликвидация одного вида деградации не гарантирует от появления другого.

Литературы

1. Толкач О. В. Водорегулирующая и поллютанто-депонирующая роль лесов (на примере Среднего Урала). - ФГБОУ ВПО «Уральский государственный лесотехнический университет». - Екатеринбург, 2015. - 305 с.
2. Global guidelines for the restoration of degraded forests and landscapes in drylands (PDF). Food and Agriculture Organization of the United Nations. June 2015. ISBN 978-92-5-108912-5. Retrieved June 2015.
3. Scientists Consider the Evolution of Land Degradation Neutrality Concept // UNCCD. 22.11.2017 - [Electronic resource]. Access point: <http://www2.unccd.int/news-events/scientists-consider-evolution-land-degradation-neutrality-concept>.
4. Action Against Desertification // FAO. -2015. -[Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.fao.org/in-action/action-against-desertification/background/en>.

Isaqov V.Yu., Meliyev M.S., Muhammadova M.T.
Qo'qon davlat pedagogika instituti

OROL VA OROLBO'YI HUDUDLARIDA CHO'LLANISHNI OLDINI OLISHNING AYRIM MASALALARI

Аннотация: в этой статье представлен обзор проблемы Арала, ее нынешнего состояния и будущего в результате человеческой деятельности. В то же время есть несколько способов решения этих проблем.

Ключевые слова: Арал, Амударья и Сырдарья, ООН, пустыня Аралюм, солености, ветры, МФСА.

Annotation: this article provides an overview of the Aral problem, its current status and future as a result of human activities. At the same time, there are some ways to solve these problems.

Keywords: Aral, Amudarya and Syrdarya, UN, Aralum desert, salinities, winds, IFAS.

Markaziy Osiyo mintaqasining eng katta ekologik muammosi - Orol dengizi fojiasi BMT e'tiborida. O'tgan asrning 60-yillaridan qurishni boshlagan dengiz muammosiga hamon yechim topilmagan. Hozirgi tashabbuslar asosan Orolbo'yi hududlarida yashovchi xalqlar xavfsizligini ta'minlash, ekologik fojia oqibatlarining inson hayotiga ta'sirining kamaytirishga yo'nalgan.

Amudaryo va Sirdaryo Orolga umumiy quyilish hajmi keyingi 50 yil ichida 5 barobar, Orol dengizining suvi 14 barobardan ko'proq kamaydi, uning sho'rланish darajasi esa deyarli 25 marta ortdi. Bu Orol dengizidagi ilgari mavjud bo'ldan baliq va boshqa dengiz mavjudodlarining deyarli butkul yo'qolishiga olib keldi.

Orolning qurigan qismi o'rnida sodir bo'lgan 5,5 mln gektardan ortiq maydondagi yangi Orolqum sahrosi tobora butun Orolbo'yi mintaqasiga yoyilmoqda. So'nggi 50 yil davomida Orolning o'zgarish dinamikasiga nazar tashlasak, o'tgan 50-55-yil davomida Orol dengizining suv hajmi 15 barobarga qisqardi. Orol dengizi akvatoriyasi 8 barobarga qisqardi. Dengiz sathi 2,5 metrqa tushib ketdi.

Bundan tashqari, hozir iqlimning global miqyosda o'zgarishini kuzatadigan bo'lsak, Orol bo'yida bu ko'rsatkichlar o'rta global ko'rsatkichlarga nisbatan harorat 2 barobar tezroq ko'tariladi. Agar shunday vaziyat davom etaversa, 2035-yilga borib Orol hududida harorat taxminan 1,5-3 selsiygacha ko'tarilishi mumkin. Bu dunyodagi harorat ko'tarilishidan 2 barobar tez degani.

Milliy miqyosda O'zbekiston Respublikasi Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashda keng chora- tadbirlarni amalga oshirmoqda. 1990-yillardan boshlab yuzlab dastur va loyihalar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda O'zbekistonning 70% yoki 31,4 mln gektar yeri qurg'oqchil maydonlardan iborat bo'lib, ular asosan tabiiy sho'rланган, ko'chma barxan issiq garmsel shamollari ta'siridagi hududlardan iborat.

1990-yildan boshlab Orol fojiasi halokatining boshidan kechirayotgan barcha mamlakatlar BMT, shuningdek, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar minbarlaridan jahon hamjamiyatining diqqat-e'tiborini Orol muammosiga, uning mintaqaviy va global xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq ekanligiga jalb etib kelishmoqda. 1993-yil 28-sentabr BMT bosh assambliyasining 48-sessiyasida va 1995-yil 24-oktabrdagi 50-sessiyasida Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari vakillari jahon hamjamiyatini Orol va Orolbo'yini qutqarishda ko'mak berishga chaqirdilar hamda ushbu muammoni xalqaro moliyaviy tuzimlar, rivojlangan davlatlar ko'magisiz va BMT ning shafeligisiz amalga oshirish mumkun emasligiga BMT ning e'tiborini

qaratishdir. Ushbu muammolarni hal etish bo'yicha mintaqaviy hamda milliy miqyosda amaliy say-harakatlar amalga oshirilmoqda. 1993-yilda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston ishtirokida tashkil etilgan Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg'armasi (OQXJ) bunga yorqin misodir.

BMTning Nyu Yorkdagi bosh qarorgohida yana Orol dengizi fojiasi va uning oqibatlarini muhokamaga olib chiqildi. Orol dengizi bilan bog'liq halokatli vaziyatning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan mazkur tadbir O'zbekiston, Norvegiya, Nigeriya va Yaponiya hukumatlari tomonidan BMTning inson havfsizligi bo'yicha bo'limi, **BMT ning O'zbekistondagi mamlakat tashkil etildi.**

Orolni saqlab qolish mumkin bo'lgan chora-tadbirlar:

1. Ochiq kanallarni betonlashtirish, suvni me'yorida taqsimlash, yangi (tomchilatib, yomg'irlatib) sug'orish usullarini joriy qilish, sel suvlaridan oqilona foydalanish. Bu tadbirlar Orol suvini ko'paytirish bilan birga, uning havzasidagi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yaxshilaydi.

2. Orolning asosiy manbai hisoblangan Amudaryo va Sirdaryo havzalarini qattiq nazorat qilib, iloji boricha ikki daryo suvini ko'paytirib, Orolga tashlash lozim. Amudaryo havzasidagi Sarez ko'li suvining bir qismini Rangun, Norak, Janubiy Surxon, Tolimarjon, Quyimozor, Zand, Tuyamo'yin, Dautko'l suv omborlarini, Vaxsh, Qarshi, Amu-Buxoro kanallar suvining ma'lum qismini Amudaryoga qaytarish kerak. Hozirgi vaqtda birgina Qoraqum kanali orqali Amudaryodan har yili 12 km. kub suv olinmoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, shuning 7 km. kub gacha hajmi bug'lanib va qumga singib, yo'q bo'lmoqda.

Kanalning enini qisqartirilib betonlashtirilsa 5-6 km. kub suvni iqtisod qilib, Amudaryoga qaytarish mumkin.

Sirdaryo havzasidagi To'xtagul, Andijon, Qayroqqum, Chorvoq, Chordara suv omborlari, ba'zi kanallar suvining bir qismi va Haydarko'l suvining hammasini tozalab, Sirdaryoga yuborish lozim.

3. Yana bir kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan biri sug'orishni jadallashtirish maqsadida Amudaryo va Sirdaryo havzalarida tashkil etilgan suv omborlarining holatidir. Bu suv omborlariga Amudaryo va Sirdaryodan ko'p suvlar olinib, daryolar suvining keskin qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Lekin suv omborlari suvining ko'p qismi bug'lanib ketmoqda, yildan-yilga loyqalar hisobiga ularning sathi ham qisqarib bormoqda. Eng achinarli tomoni shundaki, deyarli barcha suv omborlari atayin tashkil etilgandek jo'g'rofiy o'rniga ko'ra aholi zich yashaydigan shaharlar va qishloqlar yuqorisida (ustida) qurilgan. Ma'lumki, bu hududlar yangi tektonik harakatlar zonasiga kiradi. Shunday holatda bu joylarda kuchli yer qimirlash bo'lmaydi deb kim kafolat bera oladi? Shularni hisobga olib, ko'pgina suv omborlarining bahridan o'tish kerak.

4. Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Chorjoy vohalarida vujudga kelayotgan barcha qaytarma, oqava va zovur suvlarini yig'uvchi maxsus kollektolar qazib, suvni Orolga oqizish, zudlik bilan amalga oshirish kerak.

Bundan tashqari, OQXJ faoliyatining hozirgi vaqtdagi asosiy natijasi Orol dengizi havzasi mamlakatlari uchun 3 ta ko'mak dasturining qabul qilinishi Orol va Orolbo'yi tabiatini butkul ijobiy tomonga o'zgartirib yuboradi.

Хурсанов Д.Б., Фозилов Х.
Самарканд давлат университети

АМУДАРЁ ҲОЗИРГИ ДЕЛЬТАСИДАГИ ЧЎЛЛАНИШ ЖАРАЁНИНИНГ БАЪЗИ БИР ЕЧИМЛАРИ

Аннотация: в статье подробно рассматриваются основные факторы влияющие процесс опустынивания в современной дельте Амударьи и некоторые пути их решения.

Ключевые слова: дельта, опустынивание, экосистема, гидроморф, структура, геосистема, элементарные ландшафт, фитомелиорация.

Чўлланиш жараёни деганда атроф-муҳитдаги геотизимларнинг, унумдор ерлар ҳосилдорлигининг камайиши, деградацияланиши, иклимнинг куруклашиши ва бошқа антропоген омиллар натижасида содир бўладиган жараёнлар тушунилади. Ҳозирги вақтда чўлланиш жараёни жуда қисқа муддат ичида рўй бериб, барча турдаги геотизимларда, жумладан, табиий ва антропоген ландшафт комплексларини ўзгаришига олиб келмоқда. Амударёнинг ҳозирги дельтаси Нукус шаҳридан бошланиб Орол денгизининг 1961 йилги чегарасига қадар давом этади. Майдони 19000 км² бўлиб, чўлланиш жараёни жадал юз бераётган энг таъсирчан ҳудуд ҳисобланади. Дельтадаги чўлланиш жараёнини вужудга келтирувчи бир неча омилларни санаб ўтиш мумкин. Жумладан, биринчи омил сифатида Орол денгизининг тобора куриб бориши бўлса, иккинчидан, Амударёнинг юқори қисмларида дарё сувидан суғоришда фойдаланиш натижасида сувнинг минераллашиш даражасининг ўзгаришидир. Айниқса, денгизнинг куриган қисми дефляция жараёни орқали дельтага чанг билан бирга кўп микдорда тузларни ҳам тарқатмоқда. Натижада дельтадаги лалмикор ерларда шўрланиш, ландшафтларнинг динамик ўзгариши ҳамда чўлланиш жараёни кузатишмоқда.

1961 йилгача Амударё ҳозирги дельтасидаги табиий географик шароит Амударё сув сарфи ва Орол денгизининг сатҳи билан боғланган бўлиб, иклим ҳозирги вақтга қараганда анча нам бўлган. Ҳудуд иклими ўзгариши билан гидроморф тупроқлар грунт сувлари таъсиридан холи бўлиб, автоморф тупроқларга айланиб борган. Грунт сувлари чуқурлашиб, аста-секин чўлланиш жараёни ва шўрланиш кучайиб, ўтлоқ-тақирли, ўтлоқ-чўл тупроқлари ҳамда шўрхоқлар майдони кенгайиб кетмоқда. Бунинг натижасида ўсимлик қоплами

